

SIRDARYO VILOYATIDAGI GEODEMOGRAFIK VAZIYAT: MUAMMO VA ECHIM

Xidiraliyev Komil Esanovich

Guliston davlat universiteti

*“Ekologiya va geografiya ” kafedrasida
geografiya fanlari nomzodi., dotsent.*

Yo‘lchiyeva Nasiba Akram qizi

Guliston davlat universiteti

*“Ekologiya va geografiya ” kafedrasida
2-bosqich magistr geografiya ta’lim yo‘nalishi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada geodemografik vaziyatni mohiyati ochib berilgan. Geodemografik vaziyatni keltirib chiqaruvchi omillar e’tiborga olingan. Shuningdek, Sirdaryo viloyatining o‘ziga xos geodemografik vaziyati, muammolari va echimlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Geodemografiya, geodemografik vaziyat, omil, ko‘rsatkich, geodemografik muammo, geodemografik echim, aholi, ekologiya, tabiiy o‘rinish.

GEODEMOGRAPHIC SITUATION IN THE SYRDARYA REGION: PROBLEM AND SOLUTION

Khidiraliyev Komil Esanovich

Gulistan State University

*Department of Ecology and Geography
PhD in Geography, Associate Professor.*

Yulchieva Nasiba Akram Kizi

Gulistan State University

*Department of Ecology and Geography
Second-year Master's student in Geography.*

Abstract. This article explores the essence of the geodemographic situation. It examines the factors that determine it. It also examines the characteristics of the geodemographic situation, its problems, and solutions in the Syrdarya region.

Keywords: geodemography, geodemographic situation, factor, indicator, geodemographic problem, geodemographic solution, population, ecology, natural growth.

Aholini tartibli o‘zgarishi va takror barpo qilish tiplari umumiy geodemografik vaziyatni belgilaydi. Geodemografik vaziyat-demografik jarayonlarning va aholi tarkibining ma’lum bir vaqtda yoki davrdagi holatining geografik sharoitga bog‘liqligidir. Geodemografik vaziyat-bu aholining ma’lum bir hududiy guruhida shakllangan tug‘ilish, o‘lim darajasi, migratsiya harakatchanligi va ularning o‘zgarish tendentsiyalari (yo‘nalishlari) o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘lib, ma’lum bir davrda aholining ma’lum bir yosh va jins tarkibini, ularning sonining ma’lum dinamikasini va keyingi takror barpo bo‘lishi uchun sharoitlarni yaratish [1].

Geodemografik vaziyatning asosiy ko‘rsatkichlari: tug‘ilish darajasi, o‘rtacha umr ko‘rish, o‘lim, migratsiya, aholining tabiiy ko‘payishi yoki kamayishi. Demografik vaziyatni yuzaga keltiruvchi asosiy **omillar:** demografik xulq-atvorning mahalliy an’analari; yashash uchun tabiiy sharoitlarning qulaylik darajasi; iqtisodiy

rivojlanish sur'ati, ko'lami va nisbati; siyosiy vaziyat, migratsiya xususiyatlari, urbanizatsiya va globallashtirish. Boshqarishning eng yuqori darajasiga ega bo'lgan omillarga ijtimoiy-iqtisodiy omillar, migratsiya va milliy siyosat kiradi. Geodemografik vaziyat o'zgarishi (yaxshilanishi yoki yomonlashishi) mumkin, bu aholining demografik xulq-atvoriga bog'liq-nikoh, reproduktiv mayl, o'zini o'zi saqlash.

Geodemografik vaziyat ma'lum bir mamlakat uchun aholining maqbul tarkibi va miqdorini shakllantirishga hissa qo'shsa-qulay hissoblanadi va aksincha ularda istalmagan o'zgarishlarga olib keladigan bo'lsa-noqulay deb baholanadi. Noqulay demografik vaziyat xavfning yuqori chegaralariga etib borishi mumkin, natijada demografik **inqiroz va demografik** falokat farqlanadi [2].

Geodemografik vaziyat har qanday davlatning ijtimoiy hayotiga ta'sir qiladi. Ushbu doirada ijtimoiy hayot va demografik bosimga misol keltirsak. Xitoyning qadimiy donishmand faylasufi Konfutsiy ikki yarim ming yil oldin "Biz qanaqa xalq ekanligimizni bilgingiz kelsa, oldin bizning sonimizni bilib oling" degan ekan. Donishmandning bu so'zlari O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-ijtimoiy rivojlanish davrida ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksincha, jamiyatimizning rivojlanish sur'atlari shiddat bilan oshib borayotgan sari aholimizning soni, undagi tarkibiy va sifat o'zgarishlar e'tiborimizdan chetda qolib ketishiga yo'l qo'yishimiz kerakmas.

Bu borada e'tiboringizga O'zbekistonning o'ziga xos viloyati Sirdaryo viloyatida yashab istiqomat qilib kelayotgan aholimiz soniga, ularning keyingi paytlarda son va jins jihatidan bo'layotgan keskin o'zgarishlariga, viloyatimizdagi aholining yaqin va uzoq istiqbollaridagi bo'lajak holatlarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz [3].

2025-yilning 1-iyul holatiga Sirdaryo viloyatining doimiy aholisi soni 938,5 ming kishini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,8 (16,4 ming kishiga) foizga ko'paygan (1-jadval). 2025-yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni 10,1 ming nafarni, vafot etganlar 2,2 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 7,9 ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 21 kishini va viloyatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 60 kishini, qayd etilgan nikohlar 2,4 mingtani, nikohdan ajralishlar 0,8 mingtani tashkil etgan.

Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda 403,5 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 43,0 %), qishloq joylarda esa 535,0 ming kishi (57,0 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 467,0 ming kishini (49,8 %), erkaklar esa 471,5 ming kishini (50,2 %) tashkil etmoqda.

Sirdaryo viloyatida 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 219,3 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa 2024 yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 3,9 kishiga ortgan (2024-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga 215,4 kishi).

Viloyatda 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni 10123 kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 21,8 promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 291 nafarga kamaygan. Vafot etganlar soni 2178 kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni

joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 106 nafarga ko'paygan.

1-jadval. Viloyatda doimiy aholi soni ming kishi.

	2024-yil	2025-yil	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	922,1	938,5	101,8
Guliston sh.	100,7	103,4	102,7
Shirin sh.	19,4	19,4	100,0
Yangiyyer sh.	48,5	49,6	102,3
tumanlar			
Oqoltin	56,2	57,0	101,4
Boyovut	140,1	142,7	101,9
Sayxunobod	83,4	84,7	101,6
Guliston	80,3	81,7	101,7
Sardoba	70,8	71,8	101,4
Mirzaobod	81,2	83,2	102,5
Sirdaryo	138,2	140,2	101,4
Xovos	103,3	104,8	101,4

Viloyatda tirik tug'ilganlar soni 10123 kishini, shundan o'g'il bolalar soni 5252 kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,9%), qiz bolalar soni 4871 kishini (48,1%) va shahar joylarida 3811 kishini (37,6%), qishloq joylarida 6312 kishini (62,4%) tashkil etdi. Viloyatda vafot etganlar soni 2178 kishini, shundan erkaklar 1207 kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 55,4%), ayollar 971 kishini (44,6%) va shahar joylarida 1022 kishini (46,9%), qishloq joylarida 1156 kishini (53,1%) tashkil qildi.

Viloyatda 2025-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni 2392 birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 18 birlikka kamaygan. Nikohdan ajralishlar soni 774 birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,7 promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 birlikka ko'paygan. Viloyatda qayd etilgan nikohlar soni 2392 birlikni, shundan shahar joylarida 1157 birlikni (48,4%), qishloq joylarida 1235 birlikni (51,6%) tashkil etdi.

Viloyatda nikohdan ajralishlar soni 774 birlikni, shundan shahar joylarida 421 birlikni (54,4%), qishloq joylarida 353 birlikni (45,6%) tashkil qildi. 2025-yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 3 872 kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 3851 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 21 kishini tashkil etdi. Ko'chib ketganlar jami soni 4197 kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 4137 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 60 kishini tashkil qildi.

Jami aholida jinslar farqi-erkaklar-471500 kishi (50,2%), ayollar-467000 kishi (49,8%). Aholini yosh guruhlar bo'yicha taqsimlanishi-0-15 yosh-296067 (31,8%) kishi, 16-64 yosh-591368 (63,5%) kishi, 65 va undan yuqori-43408 (4,7%) kishi. Qishloq aholisi-535000 (57,0%) kishi, shahar aholisi-403500 (43,0%) kishi.

Sirdaryo viloyati muhim geografik joylashuvga ega bo'lib, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Viloyatning geodemografik vaziyatini o'rganish, uning aholi soni, taqsimoti, ijtimoiy infratuzilmasi va ekologik holatiga qarab, kelajakdagi rivojlanish uchun kerakli chora-tadbirlarni belgilashga yordam beradi. Viloyatning iqtisodiy ahamiyati, qishloq xo'jaligi va sanoatdagi o'rni, shuningdek, mintaqada yashovchi aholi sonining o'sishi bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish zarur [4].

Muammo. Sirdaryo viloyatidagi asosiy geodemografik muammolardan biri – aholi sonining o'sishi va ularning taqsimlanishidagi noaniqliklar. Aholi sonining ortishi bilan bog'liq muammolar viloyatdagi infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, qishloq joylarida tibbiyot, ta'lim va transport sohalarida sust rivojlanish kuzatilmoqda. Viloyatda yoshlar sonining ortishi, shu bilan birga, mehnat bozoridagi tanqisliklar, kasb-hunar ta'limining yetishmasligi va yangi ish o'rinlarining yaratilmasligi ham jiddiy muammolardan biridir.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatining agrar hudud bo'lishi, yer va suv resurslaridan unumli foydalanish masalasini dolzarb qiladi. Suv resurslarining cheklanganligi, yerning unumdorligini saqlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirish bilan bog'liq muammolar ham viloyatning geodemografik vaziyatiga ta'sir qiladi. Suvning tejab ishlatish, o'zgartirilgan qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish zarur.

Bundan tashqari, migratsiya jarayoni ham Sirdaryo viloyatining geodemografik vaziyatiga ta'sir qiladi. Ichki migratsiya, asosan, qishloq joylaridan shaharlarga ko'chish orqali amalga oshadi. Biroq, bu jarayon natijasida shaharlarda aholi zichligi ortib, mavjud infratuzilmaning va ijtimoiy xizmatlarning sifati pasayishi kuzatilmoqda.

Sirdaryo viloyatida migratsiya va aholi o'zgarishi ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Viloyatdagi shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi migratsiya jarayonlari, aholi zichligining oshishi va yangi ish o'rinlari yaratishda qiyinchiliklarga olib keladi. Qishloq joylaridan shaharlarga ko'chish, ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalgan. Bu esa shaharlarda yashash sharoitlarining qiyinlashishiga, infratuzilmaning zaiflashishiga va yangi ish o'rinlarining yaratilmasligiga olib keladi.

Ichki migratsiyaning sabablaridan biri, qishloq joylarida yerlarning kamayishi, qishloq xo'jaligi faoliyatining qiyinlashishi va yoshlarning ish o'rinlari topishda qiynalishidir. Bu jarayon viloyatning mehnat bozoriga, ta'lim tizimiga va ijtimoiy xizmatlar sohasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Sirdaryo viloyatining ekologik vaziyati ham uning geodemografik holatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Suv resurslarining taqsimoti va qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish masalasi viloyatdagi eng dolzarb muammolardan biridir. Sirdaryo daryosi viloyatning asosiy suv manbaidir, ammo bu resursdan samarasiz foydalanish va suvning ifloslanishi ekologik salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Suv resurslarining cheklanganligi va uni samarali boshqarish ehtiyoji viloyatning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir qiladi.

Qishloq xo‘jaligi faoliyati viloyatda asosiy iqtisodiy tarmoqlardan biri bo‘lib, yerning unumdorligini saqlash va suvni tejashning ahamiyati oshib bormoqda. Suv resurslarini tejash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ekologik toza ishlab chiqarishni rivojlantirish viloyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi [5,6].

Yechimlar. Sirdaryo viloyatidagi geodemografik vaziyatni yaxshilash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Birinchidan, aholi sonining o‘sishiga va uning taqsimlanishiga samarali yondashuvni joriy etish lozim. Aholi zichligini kamaytirish va qishloq joylarida ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish orqali shaharlardagi yashash sharoitlarini yaxshilash mumkin. Qishloq joylarida ish o‘rinlarini yaratish, ta‘lim tizimini kuchaytirish va infratuzilmani rivojlantirish viloyatda aholi migratsiyasini boshqarish uchun zarur choralar bo‘ladi.

Mehnat migratsiyasini boshqarish va mehnat resurslarini samarali ishlatish uchun ta‘lim tizimini yangilash, kasb-hunar ta‘limini kengaytirish va yoshlarni ishga joylashtirishni osonlashtirish kerak. Buning uchun viloyatda mehnat bozoriga mos kadrlar tayyorlash, kasb-hunar o‘rgatish va yangi ish o‘rinlarini yaratish zarur.

Suv resurslarini boshqarish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun suvni tejash va zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish zarur. Sirdaryo viloyatidagi qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanish, suv resurslarining taqsimotini boshqarish va yer unumdorligini saqlash orqali ekologik vaziyatni yaxshilash mumkin. Suv resurslarining taqsimotini boshqarishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, yashil texnologiyalarni rivojlantirish va tabiiy resurslarni tejash O‘zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashga yordam beradi.

Sirdaryo viloyatidagi geodemografik vaziyat, ayniqsa, aholi sonining o‘sishi, migratsiya jarayonlari, ekologik muammolar va suv resurslarining boshqarilishi bilan bog‘liq muammolarni o‘z ichiga oladi. Viloyatning kelajakdagi rivojlanishiga ta‘sir etadigan omillarni hal qilish uchun kompleks yondashuvni qo‘llash zarur. Aholi taqsimotini boshqarish, mehnat migratsiyasini boshqarish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va suv resurslarini samarali boshqarish viloyatning geodemografik vaziyatini yaxshilash uchun muhim choralar bo‘ladi.

Sirdaryo viloyatining geodemografik vaziyatini yaxshilash uchun ijtimoiy infratuzilma va ta‘lim tizimlarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratish zarur. Aholining farovonligini oshirish uchun ta‘lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini modernizatsiya qilish kerak. Bu viloyatdagi aholining yashash sharoitlarini yaxshilashda muhim omil bo‘ladi. Shuningdek, qishloq joylarida ta‘lim va sog‘liqni saqlash xizmatlarini yanada kengaytirish, ularni zamonaviy usullar bilan ta‘minlash kerak. Masalan, qishloq tumanlarida uzoq masofali ta‘lim (online ta‘lim) tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmatlarni masofaviy ko‘rsatish texnologiyalarini joriy etish aholi orasida ta‘lim va sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini oshiradi.

Ta‘lim tizimining sifatini oshirish uchun yangi zamonaviy maktablar qurilishi, malakali o‘qituvchilar tayyorlanishi va kasb-hunar ta‘limini rivojlantirish lozim. Bu o‘z navbatida aholi sonining o‘sishiga mos ravishda yosh avlodning malakasini oshirish, mehnat bozoriga mos keladigan kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini yaratadi. O‘quvchilarni turli kasblarga o‘rgatish, shu jumladan qishloq xo‘jaligi va

ekologiya sohalarida kadrlar tayyorlash Sirdaryo viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Sirdaryo viloyatining geodemografik vaziyatini yaxshilash uchun aholi migratsiyasi va mehnat bozorini samarali boshqarish zarur. Qishloq joylaridan shaharlarga bo'lgan migratsiya oqimi Sirdaryo viloyatining iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini kuchaytiradi. Migratsiyani boshqarish uchun viloyatda yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish kerak.

Ish o'rinlari yaratishning eng samarali yo'li bu viloyatda sanoatni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini modernizatsiya qilishdir. Sirdaryo viloyatida yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin. Shu bilan birga, yoshlarni ishga joylashtirish uchun kasb-hunar o'rgatish, ularni turli sohalarda malaka oshirish dasturlari orqali tayyorlash zarur.

Sirdaryo viloyatining ekologik holati ham uning geodemografik vaziyatiga bevosita ta'sir qiladi. Suv resurslarini tejash, yer unumdorligini saqlash va ekologik muammolarni hal qilish viloyatning kelajakdagi rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Suv resurslarining taqsimoti va qishloq xo'jaligida samarali foydalanish ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun zarur.

Viloyatda yer unumdorligini saqlash, yangi qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish va tabiiy resurslarni tejash orqali ekologik muammolarni kamaytirish mumkin. Suvni tejash texnologiyalarini joriy etish, issiqxona gazlarini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish viloyatning barqaror rivojlanishiga yordam beradi [7].

Sirdaryo viloyatining geodemografik vaziyatini yaxshilash uchun kompleks yondashuv zarur. Aholining o'sishi va taqsimoti, mehnat migratsiyasi, ekologik muammolar va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi viloyatning kelajakdagi rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bu masalalarni hal qilish uchun viloyatdagi mehnat bozorini modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, ta'lim tizimini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanish lozim. Shu bilan birga, Sirdaryo viloyatidagi iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun mamlakatning markaziy hududlarida mavjud bo'lgan resurslarni samarali boshqarish zarur. Aholining farovonligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash viloyatning barqaror rivojlanishining asosiy omillaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyeva Zulxumor Nazarovna. Aholi geografiyasi./darslik/.-Toshkent.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 298 bet.
2. Т.В. Ромашова. География населения с основами демографии. Томск. ТГУ. 2014.
3. Э. Ю. Сегиди. География населения с основами демографии. Харьков. 2014. – 154 с.
4. Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi. Sirdaryo viloyatida demografik holat. 2025-yil yanvar-iyun oylari uchun.
5. Xidiraliyev K.E. Aholi va iqtisodiy geografiya asoslari.- Toshkent.: -2024,-293 bet.

6. [A.S.Soliyev], N.K.Komilova, S.L.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxanov., F.T.Rajabov Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. – T.: —Universitet, 2019. -360 b.
7. Липухин, Д. Н. Геодемография Урала [Текст] : практикум : учебно-метод. пособие для студентов / Д. Н. Липухин ; Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург : [б. и.], 2019 –73 с.